



## 2021- yilning yanvar-noyabr oylari uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari




Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida Xorazm viloyatida jami **3622,8** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **125,3 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʼyicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʼlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʼyicha boʼlinadi.

**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **465,8** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **170,9 %** ga ko‘p bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko‘rsatkich darajasidan **3,4 %** punktga ko‘paydi va **12,9 %** ni tashkil etdi.



### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da




**Ma’lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Urganch shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **58,7 %** yoki 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **264,6 %**), Urganch tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **6,9 %** yoki o’tgan yilning mos davriga nisbatan **269,3 %** ) va Xonqa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **13,6 %**, yoki o’tgan yilning mos davriga nisbatan **66,0 %** ) ga to’g’ri keldi.




## Qurilish ishlarining umumiyligi hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **51,1 %** to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-noyabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,8 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **120,1 %** ni tashkil etgan holda **1851,7 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **36,0 %** ni tashkil etdi yoki **1305,3 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish **121,2 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiyligi hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **175,7** mlrd. so'mlik, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3447,1** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,9 %** va **95,1 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2021- yilning yanvar-noyabr oylarida  
hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>3622,8</b>	<b>175,7</b>	<b>4,9</b>	<b>3447,1</b>	<b>95,1</b>
<b>Urganch sh.</b>	<b>899,4</b>	<b>62,5</b>	<b>6,9</b>	<b>836,9</b>	<b>93,1</b>
<b>Xiva sh.</b>	<b>193,6</b>	<b>12,2</b>	<b>6,3</b>	<b>181,4</b>	<b>93,7</b>
<b>tumanlar:</b>					
<b>Bog'ot</b>	<b>232,3</b>	<b>10,3</b>	<b>4,4</b>	<b>222,0</b>	<b>95,6</b>
<b>Gurlan</b>	<b>198,4</b>	<b>0,1</b>	<b>0,1</b>	<b>198,3</b>	<b>99,9</b>
<b>Qo'shko'pir</b>	<b>233,2</b>	<b>10,3</b>	<b>4,4</b>	<b>222,9</b>	<b>95,6</b>
<b>Urganch</b>	<b>327,2</b>	<b>17,3</b>	<b>5,3</b>	<b>309,9</b>	<b>94,7</b>
<b>Hazorasp</b>	<b>190,7</b>	<b>12,5</b>	<b>6,6</b>	<b>178,2</b>	<b>93,4</b>
<b>Tuproqqa'l'a</b>	<b>118,1</b>	<b>10,8</b>	<b>9,1</b>	<b>107,3</b>	<b>90,9</b>
<b>Xonqa</b>	<b>284,3</b>	<b>8,1</b>	<b>2,8</b>	<b>276,2</b>	<b>97,2</b>
<b>Xiva</b>	<b>356,7</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>356,7</b>	<b>100,0</b>
<b>Shovot</b>	<b>217,0</b>	<b>13,1</b>	<b>6,0</b>	<b>203,9</b>	<b>94,0</b>
<b>Yangiariq</b>	<b>166,6</b>	<b>9,0</b>	<b>5,4</b>	<b>157,6</b>	<b>94,6</b>
<b>Yangibozor</b>	<b>205,3</b>	<b>9,4</b>	<b>4,6</b>	<b>195,9</b>	<b>95,4</b>

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2021- yil yanvar-noyabr

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 80,4 % yoki **2913,5** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

80,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **430,3** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 14,8 % ni tashkil etdi.

14,8 %

Kichik korxona va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1254,8** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 43,1 % ni tashkil etdi.

43,1 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1228,4** mlrd. soʻmni yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 42,1 % ni tashkil etdi.

42,1 %




**2021- yilning yanvar-noyabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O’sish sur’ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so‘m)
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>3622,8</b>	<b>125,3</b>	<b>2913,5</b>
<b>Urganch sh.</b>	899,4	139,0	776,2
<b>Xiva sh.</b>	193,6	126,0	151,0
<b>tumanlar:</b>			
<b>Bog‘ot</b>	232,3	145,1	151,0
<b>Gurlan</b>	198,4	122,7	175,9
<b>Qo‘siko‘pir</b>	233,2	134,7	146,7
<b>Urganch</b>	327,2	123,5	247,3
<b>Hazorasp</b>	190,7	140,3	139,8
<b>Tuproqqa'l'a</b>	118,1	127,9	96,5
<b>Xonqa</b>	284,3	101,0	232,7
<b>Xiva</b>	356,7	133,3	308,5
<b>Shovot</b>	217,0	115,3	197,7
<b>Yangiariq</b>	166,6	102,0	127,4
<b>Yangibozor</b>	205,3	101,9	162,8

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari

*ulushi, % da*



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar  
kesimida qurilish ishlari  
2021- yil yanvar-noyabr oylarida**

*mild.s'om*

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>3622,8</b>	<b>2663,4</b>	<b>617,5</b>	<b>341,9</b>
<b>Urganch sh.</b>	<b>899,4</b>	<b>612,5</b>	<b>227,6</b>	<b>59,3</b>
<b>Xiva sh.</b>	<b>193,6</b>	<b>122,5</b>	<b>53,4</b>	<b>17,7</b>
<b>tumanlar:</b>				
<b>Bog'ot</b>	<b>232,3</b>	<b>179,9</b>	<b>38,4</b>	<b>14,0</b>
<b>Gurlan</b>	<b>198,4</b>	<b>166,8</b>	<b>8,0</b>	<b>23,6</b>
<b>Qo'shko'pir</b>	<b>233,2</b>	<b>170,1</b>	<b>31,7</b>	<b>31,4</b>
<b>Urganch</b>	<b>327,2</b>	<b>211,5</b>	<b>74,0</b>	<b>41,7</b>
<b>Hazorasp</b>	<b>190,7</b>	<b>175,9</b>	<b>12,7</b>	<b>2,1</b>
<b>Tuproqqa'l'a</b>	<b>118,1</b>	<b>64,1</b>	<b>44,7</b>	<b>9,3</b>
<b>Xonqa</b>	<b>284,3</b>	<b>182,1</b>	<b>24,1</b>	<b>78,1</b>
<b>Xiva</b>	<b>356,7</b>	<b>290,9</b>	<b>54,9</b>	<b>10,9</b>
<b>Shovot</b>	<b>217,0</b>	<b>175,1</b>	<b>14,9</b>	<b>27,0</b>
<b>Yangiariq</b>	<b>166,6</b>	<b>153,9</b>	<b>12,2</b>	<b>0,5</b>
<b>Yangibozor</b>	<b>205,3</b>	<b>158,1</b>	<b>20,9</b>	<b>26,3</b>

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari





## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorazm viloyati  
statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo‘limi

Aloqa telefoni: (62)224-65-22